


3-dars. Takrorlash. To'g'ri va egri chiziqlar



1. Qaysi yo'l to'g'ri, qaysi yo'l egri?




Chizma daftarga qalam bilan chiziladi.



Bu to'g'ri chiziq **A** va **B** nuqtalar orqali o'tadi.



2. Daftaringizda nuqtalarni rasmda ko'rsatilganidek belgilang. **A** va **C** nuqtalar orqali to'g'ri chiziq o'tkazing. **B** va **D** nuqtalar orqali kesma o'tkazing. Ushbu chiziqlarning umumiy nuqtasini belgilang. Unga nom bering. Yana shunday birorta nuqtani topish mumkinmi? Xulosa chiqaring.



3. Madina, Umida va Karim birgalikda hovlidagi o'simliklarga suv quyishdi. Hovlida hammasi bo'lib 58 ta o'simlik bor edi. Madina 22 ta, Karim esa 16 ta o'simlikka suv quydi. Umida nechta o'simlikka suv quygan?



4. Tenglamalarni yeching.


$$x - 15 = 54$$

$$18 + x = 79$$

$$61 - x = 40$$



5. Hisoblang.



6. May oyida pechak novdasining uzunligi 7 dm edi. Iyun oyida u 2 dm, iyulda 4 dm, avgustda esa yana 3 dm o'sdi. Kuz boshiga kelib pechak novdasining uzunligi necha detsimetrga yetdi?



7. Sehrli novdada qizil, sariq va ko'k rangli 3 ta gul o'sgan. Gullar novdada birin-ketin joylashgan. Ko'k gul sariq gul yonida o'smagan. Qaysi gul qolgan ikkita gul orasida o'sgan?



8. Taqqoslang.

$14 - 9 \square 15 - 8$

$16 - 2 \square 16 + 2$

$12 + 14 \square 48 - 21$

$17 - 8 \square 14 - 6$

$12 + 3 \square 19 - 3$

$56 - 31 \square 17 + 11$

9. Aloening balandligi 37 cm. Kalanxoening balandligi esa undan 5 cm qisqa. Kalanxoening balandligi qanday?

